

**JAMOL KAMOLNING “JAMILA” DOSTONIDA IJODKORNING  
BADIY MAHORATI**

*Norova Nasiba Baxtiyorovna,  
Buxoro davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti  
kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)  
Do ‘smurodova Shahrizoda Dadaboy qizi,  
Jondor tumanidagi 15-maktabning  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O`zbekiston xalq shoiri ,mahoratli tarjimon Jamol Kamolning “Jamila” dostoning tahliliga bag‘ishlanadi. Shoirning badiiy mahorati, obraz yaratishi,so‘z qo‘llash uslubi,dostonning til xususiyatlari ochib berishga harakat qilingan.

**Kalit so‘z:** Uslub, mahorat, doston, so‘z qo‘llash, milliy kurashchi.

“XX asrning 60-yillarida o‘zbek dostonchiligidan shakliy, uslubiy izlanishlar jarayoni kechdi. Shu davrda yaratilgan tarixiy mavzudagi poemalarini xarakteriga ko‘ra quyidagicha guruholashtirish mumkin: 1. Mashhur tarixiy shaxslar haqidagi poemalar. Bunga M. Alining “Mashrab”, “Gumbazdagi nur”, E. Samandarning “Erk sadolari”, Sh. Qurbanning “So‘z yo‘li”, A. Mahkamning “Tavajjuh”, I. To‘lakovning “So‘ngi kecha” kabi poemalari misol bo‘la oladi. 2. Milliy ozodlik kurashchilar obrazi yaratilgan poemalar. Bu silsiladan E. Vohidovning “Ruhlar isyonii”, Jamol Kamolning “Varaxsha”, “Jamila”, U. Azimning “Xalil Sulton”, A. Suyunning “Sarbadorlar”, Sh. Qurbanning “Temur Malik yurgan yo‘llarda” poemalari o‘rin olgan.

Davr poemalarida tarixiy shaxslar obrazlari vositasida umuminsoniy g`oyalarni targ`ib qilishga intilish keng kuzatildi. Bunda ko`pincha vatanparvarligi, el-u yurt tinchligi va mustaqilligi, farovonligi yo‘lida jasorati yoxud xalq ma’naviyatini yuksaltirishdagi beqiyos xizmatlari bilan nom qozongan insonlar bosh obraz sifatida tanlangan.” [1,139-140]

XX asrda insoniyat bitmas-tuganmas jabr, zulm , izardrob, ayriliq... azoblarini solgan ikki olamshumul jahon urushlarini boshidan o`tkazdi. Urushning butun dahshatini tasvirlash shu davrda yashagan, shu davrda frontda va front ortida ijod qilgan, shu davrda bolaligi kechgan ijodkorlar asarlarida real hayotiy haqiqatlar asosida tasvirlandi. Shoir Abdulla Oripovning “Globalashuv” she’rida shunday misralar bor: “Zaminni bir ari chaqqani chog‘i, Qabarib chiqadi ikkinchi yog‘i”. Darhaqiqat, dunyoning bir tomonida bo`ladigan urush, ofat, hunrezliklar dunyoning narigi tomoniga ham, albatta , ta’sirini ko`rsatmay qolmaydi.

Jamol Kamolning “Jamila” dostoni erk uchun, ozodlik uchun, istiqlol uchun

kurashgan Jazoyir halqining jasur, vatanparvar qizi Jamila Buxired jasoratiga bag`ishlanadi. Doston to`rt qisimdan tarkib topgan. Bizningcha, birinchi qismida Jazoyir xalqining nurli osmonini qoplagan qora bulutli kunlarni, ikkinchi qismida payhon bo`lgan diyorning mozorga aylanganidan onasiga o`tinib, qo`liga qilich olgan jasoratli qiz, uchinchi qisimda Jamilaning asir tushgandagi holati va so`ngi qismida esa asrlar o`tsada nomi onalarning allalarida yangrashi, Jamilaning nomi bilan Jazoyirning porloq tarixi boshlanajakligi qalamga olinadi.

Asosiy mavzu urush va urushning qoldirgan jarohatlaridan so`zlaydi. J.Kamolning “Jamila”dostoni milliy ozodlik kurashchisi obrazini badiiy qimmati bilan ahamiyat kasb etadi. Shoirning so`z tanlashdagi badiiy mahoratini quyidagi o`rinlarda ko`rishimiz mumkin.

“O`zbek tilining izohli” lug`atida qora so`zining o`ndan ortiq ma’nolari berilgan. Shulardan ko`chma ma’noda qora so`zi - umuman salbiy belgini ,salbiy belgiga egalikni ,yomon ma’nolarini anglatgan. [2,381] Shoir dostonning bir necha o`rinlarida qora so`zi bilan birikmalar tuza olganki, zulmatni, chirkinlikni, nafratni ushbu **qora qa’la, qora zindon,qora devor,qora burchak,qora chiroq,qop-qora izn** birikmalarida mahorat bilan tasvirlay olgan.

...Qora qal’a,qora zindon,

Temir panjara,

Tutqun bo`lgan Jamilaning

ko`kragi yara...

...Bundagi har qora devor,

har qora burchak,

Miltiragan qora chiroq,

Yana o`rgimchak...[3,264]

Shoir Jamilaning asiralikdagi ruhiy holati savol-javob shaklida haqqoni y tasvirlay olganki, u ayol kishi bo`la turib, Vatani uchun kurashmoqlikni o`zining farzandlik burchi deb biladi. Xuddi dilovar momomiz To`marisning ruhiyatiga yaqinlashtiriladi.

Shaharlardan vabo sudrab

o`tganim yo`q-ku!

Mayli ,oting!

Mayli,osing!

Mayli,qovuring!

Etlarimni to`g`rab-to`g`rab ,

Qahqaha uring!

Niyatim pok ,quyosh yang`lig`

so`nmas shiorim

Ozod bo`lsin zulmingizdan elim diyorim!.. [3,265]

Doston masnaviy shaklida yozilgan bo`lib, unda qo`llanilgan metaforalar ham ofat do`li, nafrat o`ti, o`tli so`z, odamxo`r qafas...urush manzaralarini tasvirini ohib berishda takrorlanmas .Urush har bir xonadonga kulfat olib kelgan, har bir qalbda bitmas jarohat qoldirgan. Lekin urush degan balo hali Yer yuzidan butunlay yo`qolgani yo`q. U goh terrorchilik shaklida, goh milliy va diniy adovatlar shaklida o`z sharpasini ko`rsatib turibdi. Agar odamzod ogoh bo`lmasa, ona zamindagi barcha tinchliksevar kuchlar unga qarshi chiqmasa, bu fofia avvalgilaridan ham dahshatliroq bo`lib takrorlanishi mumkin.

Jamol Kamol nafaqat o`zining lirik asarlari hamda tarjimalari orqali insonlarning ichki tuyg`ulari, hissiyoti, ruhiy kechinmalarini shunday mahorat bilan tasvirlay olganki, ushbu asarlarni o`qishimiz bilan o`sha tuyg`ular qalbimizda tug`yon uradi, tasavvurimiz tiniqlashadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Akhmedova, Shoira, and Sofiya Mahmudova. "ABU ALI IBN SINA ON A CRITICAL BIOGRAPHICAL ESSAY." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.7 (2022): 795-799.
2. Axmedova, Shoira. "THE ROLE OF THE JADID PRESS IN THE FORMATION OF UZBEK LITERARY CRITICISM." *Конференции*. 2021.
3. Ахмедова, Ш. Н., & Назарова, Д. (2021). АДАБИЙ ПОРТРЕТ ЖАНРИНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ ХУСУСИДА. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(3).
4. Ахмедова, Шоира Нематовна. "ЎЗБЕК ВА ФРАНЦУЗ АДАБИЁТШУНОСЛИИГИДА ПОРТРЕТНАВИСЛИК ТАРАКҚИЁТИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.6 (2020).
5. Ахмедова Ш. Н. ХУРШИД ДАВРОННИНГ АДАБИЙ-ЭСТЕТИК ҚАРАШЛАРИ: Ахмедова Шоира Нематовна, БухДУ ўзбек адабиёти кафедраси профессори, ф. ф. доктори //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 6.2. Maxsus сон. – С. 20-28.
6. Ахмедова, Шоира Нематова. "ПРОГРЕСС ПОРТРЕТОПИСАНИЯ В ПЕРИОД ГЛОБАЛИЗАЦИИ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ." *Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития* (2019): 12-14.
7. Ахмедова, Шоира Нематовна, Лосеева-Танем Бахтияри, and Насима Сайдурхановна Кадирова. "О Творческой Специфике Литературной Критики." *Miasto Przyszłości* 42 (2023): 326-329.
8. Bakhtiyorovna N. N. CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).
9. Baxtiyorovna N. N. USMON QOCHQOR LIRIKASIDA MUHABBAT MAVZUSINING TALQINI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.71. 75.119 Norova Nasiba Baxtiyorovna, BuxDU Ozbek tili va adabiyoti kafedrasи tayanch doktoranti (Ozbekiston) //Научно-практическая конференция. – 2021.
10. Давронова Ш. Адабий таъсир ва ижодийлик //Иностранная филология: язык, литература, образование.–2016. – 2016.
11. Davronova S. THE ORIGINALITY OF THE ARTISTIC IMAGE AND THE TRUTH OF LIFE IN THE NOVELS OF ULUGBEK KHAMDAM //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – Т. 2. – №. 06. – С. 49-53.
12. Davronova S. MODERN ÖZBEK ROMANLARINDA KÂMİL İNSAN TERBİYESİ MESELESİNİN ELE ALINIŞI //Electronic Turkish Studies. – 2017. – Т. 12. – №. 15.

13. Davronova S. Mythology in intellectual novels //Theoretical & Applied Science. – 2015. – №. 4. – С. 40-43.
14. Давронова Ш. Г. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ АНЬАНАЛАРИ ВА ИСТИҚЛОЛ ДАВРИ ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-2.
15. Davronova S. КОНТРАСТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ МЕТОДА В ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА ИСАДЖАНА СУЛТАНА “ОЛИСДАГИ УРУШНИНГ АКС-САДОСИ”(«ЭХО ВОЙНЫ ВДАЛЕКЕ») //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.
16. Давронова Ш. ҚИССАДА БАДИЙ ДАЛИЛЛАШНИНГ ЎРНИ: Шоҳсанам Давронова БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, ф. ф. доктори //Научно-практическая конференция. – 2021.
17. G'aybulloevna D. S. The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of “The Missing Motherland”) //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
18. Gaybulloevna, D. S., & Bakhtiyorovna, N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL" FATHER.
19. G'aybulloevna, D. S. (2024). TILAK JO 'RA IJODIDA BADIY IFODA VA MAHORAT. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 2(20), 212-218.
20. NEMATOVNA, A. S. ., SAIDBURKHONOVNA, K. N. ., & BEKMURODOVNA, K. O. . (2021). METHODOLOGY AND SKILLS PROBLEMS. *The Journal of Contemporary Issues in Business and Government*, 27(5), 778–784. Retrieved from <https://cibgp.com/au/index.php/1323-6903/article/view/2022>
21. Nematovna, Akhmedova Shoira. "GENRE OF LITERARY PORTRAIT IN THE WORKS OF ALISHER NAVAI." *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА*: 127
22. Norova N. Principal Directions of Studying the Problem of Style in Literature (on the Example of U. Kochkor's Lyrics) //JournalNX. – С. 913-915.
23. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE'RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 13. – №. 3. – С. 27-30.
24. Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 100.
25. Norova N. B. Creative abilities of the artist in the application of the art (on the example of the lyrics of osman kochkar) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 214-221.
26. Norova N. Artistic skills in Usmon Kuchkor poetry //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2022. – Т. 15. – №. 15.
27. Norova N. УСМОН ҚЎЧҚОР УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА: УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
28. Norova N. ҲОЗИРГИ ШЕЪРИЯТДАГИ ПОЭТИК ЯНГИЛАНИШЛАР ҲАҚИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
29. Norova N. Usmon Qo 'chqor lirikasidagi obrazlar turkumi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
30. Норова Н. Б. УСМОН ҚЎЧҚОР ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ТАЛҚИНИ: Норова Насиба Бахтиёрновна, Бух ДУ ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси,(PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1.
31. Tillaniso. Qon. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – В.60.
32. Xudoyberdiyeva H. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2018. – В.6.
33. U.Hamdam. A.Qosimov. Jahon adabiyoti. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017. – В.66.

- 34.
35. Sharipova L. Literary yor-yor //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 4. – С. 218-222.
36. Шарипова Л. БОҚИЙ МАВЗУДА БИТИЛГАН ШЕЪРЛАР: Шарипова Лайло, ф. ф. д., ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, Бухоро давлат университети //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 5. – С. 52-56.
37. Sharipova L. XX asrning 70–80-yillari o ‘zbek she’riyatida folklorizm // Toshkent: Fan. – 2011. – Т. 153.
38. Шарипова Л. ТИЛАК ЖЎРА ШЕЪРИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ: Лайло Шарипова, БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси профессори, ф. ф. д //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 4. – С. 53-56.
39. Sharipova L. MUALLIFI SINGARI DILBAR SHE’RLAR.. //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2024. – Т. 2. – №. 19. – С. 64-69.
40. Sharipova L. Замонавий шеъриятда ёмғир образи //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
41. Шарипова Л., Низомова К. ЎЗИГА ХОС ШЕЪРИЯТ //Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 19-21.
42. Sharipova L., Boboxo‘Jayeva L. A. XALQ OG ‘ZAKI IJODINING USMON AZIM IJODIGA TA’SIRI MASALASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 948-952.
43. Sharipova L. HAM TA’LIM, HAM TARBIYA BERUVCHI SHE’RLAR.. //Konferensiyalar Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 12. – С. 169-173.
44. Sharipova L. ALISHER NAVOIY IJODIDA LUG ‘Z //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. Conference Proceedings 1. – С. 387-391.
45. Shokhsanam Davronova 2021. UZBEK NOVEL IN THE INDEPENDENCE PERIOD: TRADITION AND NOVELTY ISSUES. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal.* (Feb. 2021), 679–683.
46. Қувватова Д. XX аср иккинчи ярмида ўзбек поэмаси. – Т.: Турон замин зиё, 2014.- Б.139,1402 . Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик. 5-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ нашриёти. 2008. –274, 381-б.
47. Камол Ж. Аср билан видолашув. – Т.: Фан, 2007.- Б. 264, 265,281.
48. Орипов А.Танланган асарлар 3-жилд. –Т: Ўзбекистон.2008.-Б.530.